XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 5 - oktabr VI-54-111-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

Tumanning "Kosiblar", "Ko'lqamish", "Ko'chkak", "Qizilnavr" va "Sayrob" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ayrim ko'chalarning nomlarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 3-iyundagi 01-06/66-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 24-iyundagi 18-01/170-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 26-iyuldagi 08-06350-sonli "Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to'g'risida"gi yig'ilish bayonlarini ko'rib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 3-iyundagi 01-06/66-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 24-iyundagi 18-01/170-sonli hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 26-iyuldagi 08-06350-sonli "Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to'g'risida"gi yig'ilish bayonlarini ma'qullansin.

2. Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (M.X.Jo‘rayev), tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarni, shuningdek, yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.Q.Boboyev) nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (M.T.Mirzaev), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (X.A.Nazarov) hududlarda yangi nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlarining yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (Yu.Sh.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.B.Bahovuddinov), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.N.Tursunqulov) zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Ch.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2022 yil 5 oktabrdagi
VI-54-111-8-110-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	Nomsiz	Mashinasozlar	**Mashinasozlar**
	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	Nomsiz	Ziyokor	**Ziyokor**
	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	Nomsiz	Yangitong	**Yangitong**
4.	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	Nomsiz	Birlashgan	**Birlashgan**
5.	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	Nomsiz	Shifokor	**Shifokor**
6.	Ko‘cha	“Kosiblar” MFY	Nomsiz	Ravnaq	**Ravnaq**
7.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Rohatbaxsh	**Rohatbaxsh**
8.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Totuvlik	**Totuvlik**
9.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Sog‘lom avlod	**Sog‘lom avlod**
10.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Sohibkor	**Sohibkor**
11.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Yoshlar	**Yoshlar**
12.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Yetuklik	**Yetuklik**
13.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Yasmin	**Yasmin**
14.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Yaxshiniyat	**Yaxshiniyat**
15.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Temir yo‘lchilar	**Temir yo‘lchilar**
16.	Ko‘cha	“Ko‘lqamish” MFY	Nomsiz	Jayron	**Jayron**
17.	Ko‘cha	“Ko‘chkak” MFY	Nomsiz	Fayzobod	**Fayzobod**
18.	Ko‘cha	“Ko‘chkak” MFY	Nomsiz	Oshiyon	**Oshiyon**
19.	Ko‘cha	“Ko‘chkak” MFY	Nomsiz	Charog‘on	**Charog‘on**
20.	Ko‘cha	“Ko‘chkak” MFY	Nomsiz	Elparvar	**Elparvar**
21.	Ko‘cha	“Ko‘chkak” MFY	Nomsiz	Shahriston	**Shahriston**
22.	Ko‘cha	“Qizilnavr” MFY	Nomsiz	Yurt ravnaqi	**Yurt ravnaqi**
23.	Ko‘cha	“Qizilnavr” MFY	Nomsiz	Jannatmakon	**Jannatmakon**
24.	Ko‘cha	“Qizilnavr” MFY	Nomsiz	Diyonat	**Diyonat**
25.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Sharaf	**Sharaf**
26.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Ishbilarmonlar	**Ishbilarmonlar**
27.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Ziyonur	**Ziyonur**
28.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Dilobod	**Dilobod**
29.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Darxon	**Darxon**
30.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Zabardast	**Zabardast**
31.	Ko‘cha	“Sayrob” MFY	Nomsiz	Kamarbasta	**Kamarbasta**